

GAZLAMALARGA ISHLOV BERISH PRAKTIKUMI FANINI O'QITISHDA
DIDAKTIK VOSITALARNING O'RNI

Boboqulova Fayyoza Axmad qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute Ijtimoiy fanlar fakulteti

Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Fayyozaboboqulova@gmail.com

Tel nomer: +998770351230

Annotatsiya: *Mazkur maqolada texnologiya ta'limi jarayonida "Gazlamalarga ishlov berish praktikumi" fanini o'qitishda didaktik vositalarning ahamiyati va ularning qo'llanilishi metodikasi haqida yoritiladi. Didaktik vositalar ta'lim jarayonida nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlashda, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim omil sifatida yoritiladi. Shuningdek maqolada didaktik vositalarning turlari ko'rgazmali texnik, amaliy va metodik vositalar tahlil etilib, ularning pedagogik vazifalari hamda samarali qo'llash shartlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Gazlama, didaktik vositalar, texnologiya ta'limi, ko'nikma, malaka, ko'rgazmalilik tamoyili, texnik vositalar, metodik vositalar, amaliy mashg'ulot, ijodiy va mustaqil faoliyat, interfaol metodlar, ta'lim.*

Аннотация: *В статье рассматривается значение дидактических средств и методика их применения при преподавании предмета "Практика обработки тканей" в процессе технологического образования. Дидактические средства выделены как важный фактор, обеспечивающий целостную связь теории и практики в образовательном процессе, а также формирование знаний, умений и навыков у студентов. В статье также анализируются виды дидактических средств – наглядные технические, практические и методические средства, рассматриваются их педагогические функции и условия эффективного использования.*

Ключевые слова: *Обработка тканей, дидактические средства, технологическое образование, умения, навыки, демонстрация, принцип, технические средства, методические средства, практическое обучение, творческая и самостоятельная деятельность, интерактивные методы, образование.*

Abstract: *This article discusses the importance of didactic tools and the methodology of their application in teaching the subject "Fabric processing practice" in the process of technological education. Didactic tools are highlighted as an important factor in ensuring the integral connection of theory and practice in the educational process, as well as in the formation of students' knowledge, skills and qualifications. The article also analyzes the types of didactic tools – visual technical, practical and methodological tools, discusses their pedagogical functions and conditions for effective use.*

Keywords: *Fabric processing, didactic tools, technological education, skills, qualifications, demonstration, principle, technical tools, methodological tools, practical training, creative and independent activity, interactive methods, education.*

Kirish

“Gazlamalarga ishlov berish” fani texnologiya ta’limining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanib, talabalarda gazlamalarning xususiyatlarini bilish, ularni to‘g‘ri tanlash, bichish, tikish va pardozlash bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi.

Asosiy qism

Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda didaktik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

- Ular orqali: mavzuni tushuntirish aniq va ko‘rgazmali bo‘ladi.
- Nazariya va amaliyot uyg‘unlashadi.
- Talabalar faol va mustaqil ishlashga jalb qilinadi.
- Talabalarda kasbiy motivatsiya va qiziqishi ortadi.

Hozirgi davrda ta’lim tizimida nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelmoqda. Texnologiya ta’limining tarkibiy qismi sifatida o‘qitiladigan “Gazlamalarga ishlov berish praktikumi” fani talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki kasbiy–amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Mazkur jarayon didaktik vositalardan samarali foydalanish darsning metodik jihatdan mukammalini ta’minlab, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy qiziqishlarini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Didaktik vositalarning pedagogik ahamiyati.

Didaktik vositalar – bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun qo‘llaniladigan moddiy va metodik vositalar majmuasi hisoblanadi. Ular dars jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirini kuchaytirib, ta’lim samaradorligini oshiradi.

Pedagogik nazariyada didaktik vositalar ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Chunki ular bilimlarini faqat og‘zaki tushuntirish emas, balki ko‘rgazmali, amaliy va interaktiv shaklda o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

1. Ko‘rgazmalilik tamoyilini ta’minlash – Nazariy tushunchalar, qoidalar va jarayonlarni ko‘rgazmali materiallar orqali tushuntirish talabalarda mustahkamroq tasavvur hosil qila oladi. Masalan, gazlamaning tolalari yoki tuzilishini plakat yoki mikroskop orqali ko‘rsatish.
2. Bilish faoliyatini faollashtirish.
3. Talabalarning qiziqishlarini uyg‘otadi va ularni faol ishtirokchi sifatida va mustaqil ishlashga jalb qiladi. Talabalarning o‘zlari kuzatgan tajriba qilgan yoki ushlab ko‘rgan narsalarni tezroq o‘zlashtiradi.
4. Nazariya va amaliyot uzviyligini ta’minlash.

Didaktik vositalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi. Masalan, gazlamalarning xossalari haqida nazariy ma’lumot berilgach, ularni kesish, tikish orqali amalda ko‘rsatiladi.

Nazariya va amaliyot integratsiyasi – nazariy bilimlarning ishlab chiqarish jarayoni bilan uyg'unligini ta'minlaydi.

1. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.

✓ Amaliy vositalar yordamida kelajak kasbiga oid dastlabki malakalar shakllana boshlaydi. Bu jarayon talabalarga kasbiy motivatsiyani kuchaytiradi. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish talabalarda tanlagan kasbiga nisbatan qiziqish, ishtiyoq va ijobiy munosabat uyg'otadi.

✓ Ijodiy va mustaqil faoliyatni rivojlantirish.

✓ Didaktik vositalar yordamida nafaqat tayyor bilimni oladi, balki uni tahlil qiladi, solishtiradi, yangilik yaratishga intiladi.

2. Gazlamalarga ishlov berish amaliy mashg'ulotlarida didaktik vositalar. Mazkur fan doirasida qo'llaniladigan didaktik vositalar quyidagi turlarga ajratilishi mumkin.

➤ Ko'rgazmali vositalar – gazlama namunalarini, stend va diagrammalar, paxta, ipak, sentetik va ko'rgazmali vositalar hisoblanadi. Tayyor kiyimlar, matodan ishlangan buyumlar, gazlamaning to'qilishi, tolalari, tuzilishi va xossalarni yorituvchi plakat namunasi jadval diagrammalar hisoblanadi.

➤ Texnik vositalar – multimedia taqdimotlari, vediodarlar, interaktiv doska, elektron darsliklar va 3D modellardir. Interaktiv doskadan foydalanib bichish yoki tikish jarayonini vizual kursatish virtual laboratoriyalar.

➤ Amaliy vositalar – tikuv mashinalari, press -jihozlar, bichish va tikish asboblari: qaychi, igna va boshqa texnologik jihozlar, gazlamani kesish, qirqish.

➤ Metodik vositalar – amaliy topshiriqlar, yo'riqnomalar kartochkalari, metodik tavsiyanomalar, mehnat xavfsizligi ko'rsatmalari metodik vositalar hisoblanadi.

➤ Didaktik vositalardan samarali foydalanish metodikasi.

➤ Gazlamalarga ishlov berish mashg'ulotlarida didaktik vositalardan foydalanishda quyidagi metodik shartlarga rioya etish muhim hisoblanadi.

Vositalar darsning didaktik maqsadiga mos tanlanishi. Masalan, gazlamaning tuzilishini tushintirishda ko'rgazmali vosita, bichish usulini o'rgatishda esa amaliy vosita qo'llash.

Ko'rgazmali vositalardan nazariy mashg'ulotlarda, texnik va amaliy vositalardan esa ko'nikma hosil qilish jarayonida foydalanish.

Interaktiv metodlar bilan uyg'unlashtirish.

Guruhli va individual topshiriqlar orqali ijodiy faoliyatni rag'batlantirish.

3. Pedagogik ahamiyatini yorituvchi tamoyillari.

Didaktik vositalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi quyidagi tamoyillar bilan belgilanadi.

✓ Ko'rgazmalilik tamoyili -talabalar o'rganayotgan narsani bevosita kuzatish yoki amalda bajarish orqali yaxshiroq o'zlashtiradi.

✓ Faollik va mustaqillik tamoyili – vositalar talabani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

✓ Osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tamoyili – vositalar yordamida talabalar bilimini bosqichma bosqich egallaydi.

✓ Nazariya va amaliyot birligi tamoyili – nazariy bilim amaliy mashg'ulot orqali mustahkamlanadi.

✓ Ta'lim samaradorligiga ta'siri.

Didaktik vositalar ta'lim jarayoniga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi.

❖ Talabalarning mavzuga qiziqishi ortadi.

❖ Dars mazmuni oson, tushunarli va esda qolarli bo'ladi.

❖ Bilimlarni o'zlashtirish darajasi yuqorilaydi.

❖ Amaliy mashg'ulotlar samarali va mazmunli tashkil etiladi.

❖ Talabalarning kasbiy kompetensiyasi shakllanadi.

Xulosa

Didaktik vositalarning oqilona qo'llanilishi "Gazlamalarga ishlov berish praktikumi" fanini o'qitishda metodik mukammallikni ta'minlaydi. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, mehnat madaniyatini shakllantirish va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Didaktik vositalarning pedagogik ahamiyati shundaki, ular ta'lim jarayonini ko'rgazmali, qiziqarli va samarali qiladi. Talabalarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Demak, didaktik vositalardan samarali foydalanish nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-3775-son Qarori. – Toshkent, 2018-yil.

2. Abduqodirov A. A., To'xtaxo'jayeva M. Q. Pedagogika. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010-yil.

3. Axmedov B. Kasb-hunar pedagogikasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020-yil.

4. G'ulomov A., Qurbonov Sh. Kasb ta'limida o'qitish metodlari. – Toshkent: NMIU «O'qituvchi», 2018-yil.

5. Hasanboyeva O., Mavlonova R., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: «Fan», 2012-yil.

6. Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: NMIU, 2019-yil.

7. Qodirov A., Usmonov B. Kasb-hunar ta'limi metodikasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2015-yil.